

**TASVIRIY SAN'AT VA TEXNOLOGIYA FANLARI  
ORQALI IJODIY QOBILIYATLARNI  
RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI USULLARI**

**Fayziyeva Firuza Giyosovna**

*Buxoro innovatsiya universiteti II kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tasviriy san‘at va texnologiya fanlarining tutgan o‘rni hamda ahamiyati yoritiladi. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, o‘yin usullari va amaliy mashg‘ulotlardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, san‘at va texnologiya fanlarini birlashtirgan holda o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy tafakkur qilishga o‘rgatish metodlari taqdim etiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *ijodiy qobiliyat, tasviriy san‘at, texnologiya fanlari, pedagogik texnologiyalar, amaliy mashg‘ulotlar, o‘yin usullari, ijodiy tafakkur.*

**Kirish.** Bugungi kunda ta‘lim jarayonida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish asosiy maqsadlardan biriga aylangan. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf davri o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga yo‘naltirish uchun eng qulay bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bolalarning qiziquvchanligi, tasavvur qilish qobiliyati va yaratuvchanlik layoqatlari yuqori bo‘ladi. Ta‘lim jarayonida bu imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali ijodkorlikni rivojlantirishga zamin yaratiladi.

Tasviriy san‘at va texnologiya fanlari aynan shu maqsadga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Tasviriy san‘at insonning ijodiy tafakkurini estetik idrok qilish orqali rivojlantirsa, texnologiya fanlari zamonaviy texnologik yondashuvlarni qo‘llash orqali ijodkorlikni amaliy faoliyat bilan bog‘laydi. Ushbu ikki fan o‘rtasidagi integratsiya o‘quvchilarda nafaqat ijodiy tasavvurni balki amaliy ko‘nikmalarini ham shakllantiradi.

Bolalarda ranglar, shakllar va obrazlar bilan ishlash orqali estetik did va nozik histuyg‘ular shakllanadi. Bu, o‘z navbatida, o‘z fikrlarini aniq va yorqin ifodalash ko‘nikmasini oshiradi. Texnologiya fanlari esa bolalarga texnologik vositalar yordamida o‘z ijodiy g‘oyalarni amalgalash imkonini beradi. Masalan, 3D modellashtirish, kompyuter grafikasi yoki kreativ dasturlar yordamida o‘quvchilar o‘z tasavvurlarini raqamli makonda ifodalashni o‘rganadilar.

Ijodiy ta‘lim jarayoni bolalarni mustaqil fikrlash, yangi g‘oyalarni izlash va ularni amaliyotda sinab ko‘rishga undaydi. Bu jarayon, ayniqsa, loyiha asosida ishslash yoki kichik guruhlarda ijodiy vazifalarni bajarish orqali yanada samarali bo‘ladi. Natijada, bolalar nafaqat ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar, balki jamoaviy ishslash,

muammolarni hal qilish va o‘zlarini erkin ifodalash kabi qobiliyatlarga ham ega bo‘ladilar.

Tasviriy san‘at va texnologiya fanlari orqali ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishda an’anaviy va raqamli san‘atni birlashtirish muhim ahamiyatga ega. Gibrid usullar yordamida qalam va bo‘yoqlar kabi an’anaviy vositalar bilan grafik planjet va raqamli dasturlar orqali yangi ijodiy ishlanmalar yaratiladi. Masalan, qo‘lda chizilgan rasmlarni skanerlab, Photoshop yoki Procreate yordamida tahrirlash orqali raqamli san‘at ko‘rinishiga keltirish mumkin.

O‘quvchilarda dizayn fikrlash ko‘nikmasini rivojlantirish ham ijodiy o‘sishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon muammoni aniqlash, ilhom olish, loyihalash, tajriba va sinov, natijani taqdim etish kabi bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Real loyihibar orqali o‘quvchilar o‘z g‘oyalari asosida yangi dizayn va yechimlar yaratadilar. Masalan, poster dizayni, logotip va animatsion qisqa videolarni ishlab chiqish kabi loyihibar ijodiy qobiliyatni rivojlantirish imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar va multimedia vositalaridan foydalanish ham samarali usullardan biridir. Grafik dizayn uchun Illustrator, CorelDRAW kabi dasturlardan foydalanish, 3D-modelllashtirish uchun Blender va Maya kabi dasturlardan foydalanish ijodiy imkoniyatlarni kengaytiradi. Shuningdek, interaktiv media loyihibar orqali o‘quvchilar o‘yin dizayni va veb-dasturlashda o‘z qibiliyatlarini namoyish etadilar. 3D-printing orqali yaratilgan modellarni haqiqatga aylantirish ham innovatsion yondashuvdir. Virtual san‘at galereyalari yaratish va internet orqali namoyish qilish orqali ishlarni keng auditoriyaga taqdim etish mumkin.

**Xulosa.** Tasviriy san‘at va texnologiya fanlari birgalikda o‘quvchilarning ijodiy qibiliyatlarini samarali rivojlantirish imkonini beradi. Amaliy mashg‘ulotlar, loyiha usullari va zamonaviy texnologiyalarni birlashtirish orqali o‘quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil ish qobiliyatları va innovatsion fikrashlari yanada rivojlanadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirova M. “Pedagogik texnologiyalar asosida ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish”. – Toshkent, 2020.
2. Norkulov T. “Boshlang‘ich ta‘limda tasviriy san‘at darslarini tashkil etish”. – Samarqand, 2019.
3. Alimov R. “Texnologiya fanida amaliy mashg‘ulotlarning samaradorligi”. – Buxoro, 2021.
4. Vygotsky L.S. “Bolalar ijodiy faoliyatining psixologiyasi”. – Moskva, 2021.
5. Sultonova D. “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qibiliyatlarini rivojlantirish yo‘llari”. – Toshkent, 2018.
6. P. M. Jakupova. “Tasviriy san‘at va dizayn pedagogikasining zamonaviy yondashuvlari”. – Qozog‘iston, 2022.
7. UNESCO Report. “Creativity and Arts Education in Schools”. – Paris, 2020.